



## DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNING MOLIYA BOZORLARIDAGI ISHTIROKINI QO'LLAB-QUVVATLASH ASOSLARI

**Mavlonov Ozod**

“Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati

ORCID: 0009-0009-7463-3795

[ozodmavlonov5@gmail.com](mailto:ozodmavlonov5@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada davlat ishtirokidagi korxonalarining moliya bozorlaridagi ishtirokini qo'llab-quvvatlashning ilmiy-nazariy asoslari, iqtisodiy mexanizmlari va institutsional jihatlarini tahlil qilingan. Tadqiqotda davlat ishtirokidagi korxonalarining fond bozorlaridagi ishtiroki bozor likvidligini oshirishi, uzoq muddatli investitsiya resurslarini jalb etishi hamda davlat budjeti yukini kamaytirishga xizmat qilishi empirik va statistik ma'lumotlar asosida ko'rsatib berilgan. Xususan, IPO, SPO va korporativ obligatsiyalar emissiyasi dinamikasi orqali kapital bozorlarida davlat sektorining o'rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari davlat ishtirokidagi korxonalarining moliya bozorlaridagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, bozor infratuzilmasini rivojlantirish hamda milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli o'sishini ta'minlashda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** davlat ishtirokidagi korxonalar, moliya bozorlari, kapital bozori, qimmatli qog'ozlar bozori, obligatsiyalar, IPO va SPO, ESG tamoyillari.

## ОСНОВЫ ПОДДЕРЖКИ УЧАСТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ НА ФИНАНСОВЫХ РЫНКАХ

**Мавлонов Озод**

Акционерное общество «Региональные электрические сети»

**Аннотация.** В данной научной статье проанализированы научно-теоретические основы, экономические механизмы и институциональные аспекты поддержки участия предприятий с государственным участием на финансовых рынках. В исследовании на основе эмпирических и статистических данных показано, что участие предприятий с государственным участием на фондовых рынках способствует повышению рыночной ликвидности, привлечению долгосрочных инвестиционных ресурсов, а также снижению нагрузки на государственный бюджет. В частности, посредством анализа динамики IPO, SPO и эмиссии корпоративных облигаций раскрыта роль государственного сектора на рынках капитала. Результаты исследования свидетельствуют о том, что поддержка участия предприятий с государственным участием на финансовых рынках является важным фактором укрепления финансовой устойчивости, развития рыночной инфраструктуры и обеспечения долгосрочного роста национальной экономики.

**Ключевые слова:** предприятия с государственным участием, финансовые рынки, рынок капитала, рынок ценных бумаг, облигации, IPO и SPO, принципы ESG.

## FOUNDATIONS FOR SUPPORTING THE PARTICIPATION OF STATE-OWNED ENTERPRISES IN FINANCIAL MARKETS

**Mavlonov Ozod**

*Joint Stock Company "Regional electrical network"*

**Abstract.** *This scientific article analyzes the theoretical foundations, economic mechanisms, and institutional aspects of supporting the participation of state-owned enterprises in financial markets. Based on empirical and statistical data, the study demonstrates that the participation of state-owned enterprises in capital markets contributes to increasing market liquidity, attracting long-term investment resources, and reducing the burden on the state budget. In particular, the role of the public sector in capital markets is revealed through the analysis of IPO and SPO activities as well as corporate bond issuance dynamics. The research findings indicate that supporting the participation of state-owned enterprises in financial markets is a key factor in strengthening financial stability, developing market infrastructure, and ensuring the long-term growth of the national economy.*

**Keywords:** *state-owned enterprises, financial markets, capital market, securities market, bonds, IPO and SPO, ESG principles.*

### **Kirish.**

Global iqtisodiyotda moliya bozorlarining jadal rivojlanishi hamda ushbu bozorlarda zamonaviy raqamli platformalar hamda sun'iy intellektning ishtiroki chuqurlashuvi sharoitida davlat ishtirokidagi korxonalarining ushbu bozorlardagi faol ishtiroki iqtisodiy barqarorlik, strategik tarmoqlarni rivojlantirish hamda milliy raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omillaridan biriga aylantirmoqda. Xususan, kapital bozorlarida uzoq muddatli moliyaviy resurslarga bo'lgan talabning ortishi, infratuzilma va sanoat loyihalarining kapitallashuv darajasi yuqoriligi davlat ishtirokidagi korxonalarining moliya bozorlaridagi rolini kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Davlat ishtirokidagi korxonalar ko'pincha energetika, transport, aloqa, moliya va kommunal xizmatlar kabi strategik tarmoqlarda faoliyat yuritadi. Ushbu tarmoqlarning moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligi butun iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ularning moliya bozorlarida ishtiroki kapital bozorlarini rivojlantirish va ularning likvidligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, davlat ishtirokidagi korxonalarni moliya bozorlariga jalb etish davlat budjetiga yukni kamaytirish imkonini beradi. Hamda ularning moliya bozorlaridagi faol ishtiroki korporativ boshqaruv sifati va moliyaviy shaffoflik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Shu sabadan ham, davlat ishtirokidagi korxonalarining moliya bozorlaridagi ishtirokini qo'llab-quvvatlashning ilmiy-nazariy asoslarini, iqtisodiy mexanizmlarini hamda institutsional vositalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish hozirgi davrda alohida dolzarblik kasb etadi. Bunda, ushbu korxonalarining aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar orqali moliya bozorlarida faol ishtirok etishini qo'llab-quvvatlash iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashning muhim mexanizmiga aylanadi, ularning ishtirokini qo'llab-quvvatlanishi bozor infratuzilmasining rivojlanishiga, moliya bozorlarining chuqurlashuvi va diversifikatsiyasiga olib keladi. Shu bilan birga, Qimmatli qog'ozlar bozoriga chiqish korxonalardan xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga rioya etish, axborotlarni oshkora e'lon qilish va investorlarga hisobdorlikni kuchaytirishni talab qiladi. Mamlakatimizda davlat ulushi mavjud xo'jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalarida korporativ boshqaruvni joriy etish, ularning operatsion samaradorligini oshirish va ochiqqligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlarni davom ettirish, shuningdek, davlat ishtirokidagi korxonalarining bozor mexanizmlariga o'tishini jadallashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 martdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi PQ-83-son qarori qabul qilgan hamda unda bir qator vazifalar berib o'tilgan. Hamda iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yirik korxonalarni isloh qilish, shu jumladan ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish hamda xususiy sektorni jalb qilish ham belgilangan.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (2015) ma'lumotlariga ko'ra, davlat korxonalari - bu to'liq yoki qisman davlatga tegishli bo'lgan va aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hamda aksiyadorlik jamiyatlari bilan bir xil huquqiy shaklda tashkil etilgan tashkilotlardir. Bu holda, davlat asosiy nazoratni saqlab qoladi va egalariga korporativ faoliyatni amalga oshirish huquqini beradi. Forbes (2000) ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi eng yirik kompaniyalarning taxminan 10% davlat korxonalari, 20% esa minority aksiyadorlar hisoblanadi (European Commission, 2016). Ushbu korxonalar bozor kuchi va davlat nazoratini birlashtirgan holda gibrud muhitda ishlaydi. Ya'ni, ular tijorat maqsadlariga erishish bilan birga davlat siyosati bo'yicha belgilangan vazifalarini va funksiyalarini bajaradilar.

2019-yilda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 10 000 dan ortiq yirik xalqaro kompaniyalar mavjud bo'lib, ulardan 800 tasi to'liq davlatga tegishli, yana 1400 tasi esa qisman. Bundan tashqari, davlat korxonalari sanoatga 110 trillion dollardan ortiq mablag' sarflaydi, bu xususiy sektor investitsiyalaridan oshib ketadi (De La Cruz va boshqalar, 2019).

Lazzarini va Musacchio (2018) davlat korxonalarining bozor ishtirokchilari va siyosat vositalari sifatidagi ikki tomonlama rolini o'rganib chiqib, ularning moliyaviy bozorlarga kirish imkoniyati ko'pincha siyosiy avtonomiya, boshqaruv standartlari va ishlash ko'rsatkichlariga bog'liqligini ta'kidladilar. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, mulkchilik va tartibga solish nazorati o'rtasida aniq farq mavjud bo'lganda, davlat korxonalarining moliyaviy bozordagi ishtiroki yaxshilanadi.

Borisova va boshqalar (2012) tomonidan 20 dan ortiq mamlakatlarda ro'yxatga olingan davlat korxonalarini tahlil qilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, davlat mulki yuqori darajadagi davlat korxonalari kuchli korporativ boshqaruv mexanizmlari mavjud bo'lmaguncha, xususiy hamkasblariga nisbatan pastroq natijalarga erishishga moyildirlar. Bu esa, institutsional islohotlar bilan birlashtirilmagan bo'lsa, moliyaviy bozor ta'sirining o'zi yetarli emasligi haqidagi fikrni qo'llab-quvvatlaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur ilmiy maqolada davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozoridagi ishtiroki masalasi nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodologik yondashuv va usullardan yani, solishtirma va statistik usullardan foydalanilgan. o'

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**


2000 va 2023-yillar oralig'ida butun dunyo bo'ylab daromad bo'yicha eng yirik 500 ta korxona qatoriga kiruvchi davlat korxonalari soni 34 tadan 126 tagacha oshdi. Ushbu davlat korxonalarining aktivlari 53,5 trillion AQSh dollari va 2023-yilda daromadi 12 trillion AQSh dollaridan oshdi. O'sha yili global bozor kapitallashuvining 12% davlat sektoriga 25% dan ortiq egalik qiluvchi kompaniyalarda bo'lgan. Biroq, davlat korxonalarining ustunligi bozorlarda sezilarli darajada farq qiladi. OECD hududida davlat sektoriga 25% dan ortiq egalik qiluvchi ro'yxatga olingan firmalarning bozor kapitallashuvi atigi 2% ni tashkil etadi, Lotin Amerikasida esa bu ko'rsatkich 16% ni, ba'zi bozorlarda esa 40% yoki undan ortiqni tashkil etadi.

Tijorat faoliyatidan tashqari, davlat korxonalari ko'pincha daromad keltirish bilan birga tengsizlikni kamaytirish, infratuzilmani rivojlantirish yoki sog'liqni saqlash xizmatlarini ko'rsatish kabi davlat siyosati maqsadlariga intilishadi. Yaxshi niyatli siyosat bozorlarning

samarali ishlashiga zarar yetkazmasligini ta'minlash uchun davlat siyosati maqsadlari atrofida ehtiyotkorlik bilan kalibrlash va shaffoflik zarur. Professional va faol davlat mulki davlat korxonalari davlat uchun uzoq muddatli qiymat yaratishini va davlat resurslaridan mulkchilik asoslariga muvofiq samarali va barqaror tarzda foydalanilishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, Bozorga asoslangan moliyalashtirish - korporatsiyalar tomonidan davlat aktsiyalari va korporativ obligatsiyalar bozorlari orqali jalb qilingan mablag' sifatida ta'riflangan - so'nggi bir necha o'n yilliklar davomida sezilarli darajada o'sdi. 2023 yil oxiriga kelib, uning umumiy hajmi global YaIMning 116% ga teng bo'ldi, moliyaviy bo'lmagan korporatsiyalarga berilgan kreditlar esa 71% ga teng. Bu o'sishning katta qismi korporativ obligatsiyalar bozorlarining kengayishi bilan bog'liq (OECD, 2025).

Dunyo bo'yicha fond birjalarida savdoga chiqarilgan, ya'ni aksiyalari ommaga taklif etilgan kompaniyalar soni 44 000 ta ro'yxatga olingan kompaniyalar mavjudligini ko'rsatgan. Shuningdek, bozordagi barcha ro'yxatdagi kompaniyalarning umumiy bozor qiymati 25 trillion AQSh dollarini tashkil qiladi (OECD, 2025).



**1-rasm. Global fond bozoridagi IPOs va SPOs larning yillik o'zgarishlari hamda obligatsiyalar emissiyasi dinamikasi (mlrd AQSh dollari) (OECD, 2025).**

Ushbu jadval asosida davlat ishtirokidagi yirik kompaniyalarning moliya bozorlaridagi ishtiroki jadal rivojlanish tendensiyalarini ko'rsatmoqda. Birinchi rasmda IPOs va SPOs hajmlarining ikki davrdagi dinamikasi ko'rsatilgan. 1990 yildan 2001 yilgacha IPO va SPO hajmlari nisbatan muvozanatli bo'lib, bu bozor islohotlarining dastlabki bosqichida xususiylashtirish va kapital bozorini shakllantirishga ustuvor ahamiyat berilganligini ko'rsatadi. 2014 va 2024 yillar oralig'ida SPO hajmi keskin o'sgan hamda 5956 tani tashkil qilgan, IPO hajmi esa nisbatan pastligicha qolgan. Bu mavjud yirik korxonalar, jumladan, davlat korxonalari tomonidan ikkilamchi bozor mexanizmlaridan faol foydalanilishini ko'rsatadi. Ikkinchi rasm nomoliyaviy kompaniyalar tomonidan korporativ obligatsiyalar chiqarishning barqaror va tez o'sishini aks ettiradi. 1990-2001 yillarda jami 9526 dona bo'lgan obligatsiyalar chiqarish 2002-2013 yillarda 17400 donaga va 2014-2024 yillarda 27311 donaga yetgan.

Bu o'sish uzoq muddatli qarz vositalari kapital bozorlarida tobora muhim moliyalashtirish manbaiga aylanib borayotganidan dalolat beradi. Bu tendentsiya, ayniqsa, endi yirik infratuzilma va strategik loyihalarni obligatsiyalar orqali moliyalashtirishi mumkin bo'lgan davlat korxonalari xosdir. Bu davlat byudjetiga yukni kamaytirish va bozor mexanizmlaridan samarali foydalanishga qaratilgan sezilarli o'zgarishni anglatadi.

"O'zbekneftgaz" davlat kompaniyasi yillik 8,75 foizli 850 mln dollarlik yevroobligatsiyalarni joylashtirdi, bu 2021-yildagi debyutdan deyarli ikki baravar qimmat.

Mablag'lar gaz qazib olishning qisqarishi sharoitida oldingi qarzlar va investitsiyalarni qayta moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Biroq yakuniy rentabellik debyut joylashtirishdan deyarli ikki baravar yuqori bo'ldi — 2021-yildagi 4,75% ga nisbatan yiliga 8,75%. Bu qarz olish qimmatlashganidan dalolat beradi. Energetika vazirligi va «O'zbekneftgaz» AJ 2021 yil noyabr oyida 700 mln AQSh dollari miqdorigacha xalqaro obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirishni tashkillashtiradi. Xalqaro obligatsiyalarni London fond birjasiga (The London Stock Exchange) joylashtirgan (Vazirlar Mahkamasi, 2021) S&P Global xalqaro reyting agentligi yangi obligatsiya emissiyasiga "B+" reytingini berdi.

Shuningdek, S&P Global xalqaro reyting agentligi, shuningdek, kompaniyaning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yaxshilanib borayotganini ta'kidlamogda: S&P Global Ratings versiyasi bo'yicha tuzatilgan EBITDA 2023-yildagi 12,1 trillion so'mga nisbatan 2024-yilda 15,6 trillion so'm (taxminan \$1,2 mlrd) deb baholanmogda. Operatsion pul oqimining qarzga munosabati ham oshgan — 2023-yildagi 13 foizdan 2024-yilda 16 foizga. 2024-yilda ushbu ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash tartibga solinadigan gaz tariflarini oshirishga va UzGTL sintetik yoqilg'i zavodidan foydalanishni oshirishga bog'liq bo'ladi (Gazeta.uz, 2023).

Kapital bozorini yanada rivojlantirish, uning infratuzilmasini takomillashtirish, investorlarni kapital bozoriga jalb etishni rag'batlantirish, chet el investorlari uchun mahalliy fond bozorida qatnashish tartibini soddalashtirish va investorlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2 sentyabrdagi "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-291-son qarori tasdiqlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida 2021 — 2023 yillarda kapital bozorini rivojlantirish dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida davlat qimmatli qog'ozlari bozorini rivojlantirish vazifalari belgilangan.

Moliya segmentatsiyasi shakllangan qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi qarz munosabatlarida bozor qonunlarining to'laqonli ishlashini ta'minlab, kapitalning erkin harakatlanishi, risklarning samarali taqsimlanishi hamda foiz stavkalarining bozor mexanizmlari asosida shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada, moliyaviy resurslar eng samarali tarmoqlarga yo'naltiriladi, investorlar uchun tanlov imkoniyatlari kengayadi va iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlik mustahkamlanadi.

### **Xulosa va takliflar.**

Davlat ishtirokidagi korxonalarning moliya bozorlaridagi faol ishtiroki iqtisodiyotda investitsiya jarayonlarini faollashtirish, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash hamda bozor infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu korxonalar moliya bozorlariga jalb etish orqali davlat byudjeti yukini kamaytirish, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va korporativ boshqaruv sifatini oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi moliya bozorlarida likvidlikni oshiradi, investorlar uchun ishonchli moliyaviy instrumentlar taklifini ko'paytiradi hamda bozor segmentatsiyasining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularning bozor mexanizmlari asosida faoliyat yuritishi raqobat muhitini kuchaytirib, qarz munosabatlarida foiz stavkalarining bozor talab va taklifiga mos ravishda shakllanishini ta'minlaydi.

Davlat tomonidan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish, kredit reytinglarini oshirish hamda institutsional investorlar bilan hamkorlikni rivojlantirish davlat ishtirokidagi korxonalarning moliya bozorlaridagi ishtirokini qo'llab-quvvatlashning muhim asoslari hisoblanadi. Natijada, moliya bozorlarining barqaror rivojlanishi, davlat korxonalarining moliyaviy mustaqilligi mustahkamlanishi va milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli o'sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

**Adabiyotlar/Lumepamypa/References:**

Borisova et al. (2012) – "Government Ownership and Corporate Governance: Evidence from the EU" [https://www.researchgate.net/publication/256004719\\_Government\\_Ownership\\_and\\_Corporate\\_Governance\\_Evidence\\_from\\_the\\_EU](https://www.researchgate.net/publication/256004719_Government_Ownership_and_Corporate_Governance_Evidence_from_the_EU)

De La Cruz, A., Medina, A., and Tang, Y. (2019), *Owners of the World's Listed Companies*, OECD Publishing.

Dragomir, V.D., Dumitru, M. D. and Feleagă, L. (2021), "Political interventions in state-owned enterprises: the corporate governance failures of a European airline", *Journal of Accounting and Public Policy*, Vol. 40 No. 5, p. 106855, doi: 10.1016/J.JACCPUBPOL.2021.106855.

European Commission (2016), *State-Owned Enterprises in the EU: Lessons Learnt and Ways Forward in a Post-Crisis Context*, No. 31, *European Economy Institutional Papers*. Publications Office of the European Union, doi: 10.2765/99224.

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

Gazeta.uz (2025) «Узбекнефтегаз» привлёк \$850 млн через рекордное размещение еврооблигаций. Available at: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/05/05/uzbekneftegaz-bonds/>

Lazzarini & Musacchio (2018) – "State Ownership Reinvented? Explaining Performance Differences between State-Owned and Private Firms" [https://www.researchgate.net/publication/324157284\\_State\\_Ownership\\_Reinvented\\_Explaining\\_Performance\\_Differences\\_between\\_State-Owned\\_and\\_Private\\_Firms](https://www.researchgate.net/publication/324157284_State_Ownership_Reinvented_Explaining_Performance_Differences_between_State-Owned_and_Private_Firms)

OECD (2014) *Organisation for Economic Co-operation and Development, The Size and Sectoral Distribution of SOEs in OECD and Partner Countries*, OECD Publishing, doi: 10.1787/9789264215610-EN

OECD (2015), *OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises*, 2015 Edition, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/9789264244160-en>.

OECD (2025) *OECD Corporate Governance Factbook 2025*. Paris: OECD Publishing. Available at: [https://www.oecd.org/en/publications/oecd-corporate-governance-factbook-2025\\_f4f43735-en/full-report/global-public-markets-and-corporate-ownership\\_c5012184.html](https://www.oecd.org/en/publications/oecd-corporate-governance-factbook-2025_f4f43735-en/full-report/global-public-markets-and-corporate-ownership_c5012184.html)

Qaror (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 martdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-83-son qarori.

Qaror (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2 sentyabrdagi "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-291-son qarori.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси (2021) Нефть ва газ тармоғини трансформациясини амалга оширишда ташқи молиялаштириш манбаларини диверсификация қилишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида. Қарор № 668, 03 ноябрь 2021 йил. Тошкент.